

## TEMPERAMENTNING HOZIRGI ZAMON NAZARIYALARI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining  
Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasi o'qituvchisi*

***Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li***

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining  
Jizzax filiali "Psixologiya" fakulteti 531-22 guruh talabasi*

***Usmonov Shaxriyor Tojikulovich***

**Tayanch iboralar:** Temperament, temperament haqidagi nazariyalar, Oliy nerv faoliyati tiplari, Temperament tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi.

Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir biridan ta'sirchanligiga va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez o'yg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasining harakatlarida og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi. Kishining harakatlardagi o'zgarishi tabiiy ravishda ko'pincha tarbiyalangan ustanovkalar (ko'rsatmalar) va odatga, vaziyatning talabiga va shu kabilarga bog'liq bo'ladi. Ammo so'z yuritilayotgan individual farqlar o'zlarining tug'ma asosiga ega bo'lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiqlanadiki, bunday farqlar bolaligidayoq ma'lum bo'la boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko'rinadi va alohida barqarorligi bilan ajralib turadi. Individga xos dinamik fazilatlar o'zaro ichki bog'lanishga ega bo'lib, o'ziga xos tuzilishni tashkil etadi.

Temperamentning xususiyatlari psixikaning individual xususiyatlaridan bo'lib, inson psixik faoliyatining o'tishini, dinamikasini belgilab beradi.

Psixik faoliyat dinamikasi faqat temperamentga bog'liq emas. Psixik faoliyat dinamikasi kishining motivlariga, psixik holatlariga ham bog'liqdir. U holda temperament va kishining faoliyatiga ta'sir qiluvchi xususiyatlarni qanday farqlash mumkin. Buning uchun quyidagi belgilarni hisobga olish zarur.

Temperament lotincha - temperamentum - qismlarning nisbati degan ma'noni anglatadi. Qadimda kishidagi tuyg'ular va harakatlarning xususiyatlari uning tanasidagi "sharbatlarning" (suyuqliklarning) miqdoriga, ularning nisbatiga bog'liq deb hisoblanar edi. Bularning aralashmasi temperamentdir.

1. Temperamentning klassik nazariyalari va uning fiziologik asoslari

Temperament haqidagi ta'limot dastlab qadimgi (bizning eramizdan oldingi 460—356yillarda yashagan) grek olimi Gippokrat tomonidan yaratilgan. Uning

ta'limotiga muvofiq sur'atda, keyinchalik «temperament» termini ham ishlatiladigan bo'ldi, shuningdek, hamma to'rt tip temperament nomlari o'rnatib qoldi.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, odamlarning temperament jihatidan turlicha bo'lishi, ularning organizmidagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Gippokrat fikricha, odam tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) bordir. Chunonchi, o't yoki safro (grekcha — chole), qon (lotincha — sanguis), (qora o't - grekcha melanchole) va balg'am (grekcha — plegma) bordir. Bu suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, ularning o'z vazifasi, ishi bordir. Chunonchi, o'tning xususiyati — quruqlikdir. Uning ishi — organizmdagi quruqlikni saqlab turish, ya'ni badanni quruq tutishdir. Qonning xususiyati — issiqlikdir. Uning ishi organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati — namlikdir. Uning ishi badan namligini saqlab turish, uning namligini tutib turishdir. Balg'am (shilimshiq modda)ning xususiyati sovuqlikdir. Uning ishi badanni sovitib turishdir. Gippokrat fikriga muvofiq, har qaysi odamda shu to'rt xildagi suyuqlikdan biri ko'proq bo'lib, ustun turadi. Bu aralashma (lotincha — temperamentum)lardan qaysi biri ustun bo'lishiga qarab, odamlar temperament jihatdan har xil bo'ladi. Xoleriklarda sariq o't ustun; sangviniklarda — qon; melanxoliklarda qora o't; flegmatiklarda esa balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Mijoz odamda tabiiy ravishda paydo bo'lishini va ular orqali odam ovqatlarni, havo haroratini, yoqimli va yoqimsiz narsalarni bir-biridan farq qiladi deb «issiqlik» va «sovuqlik» tushunchasini ajratib «issiq mijoz, sovuq mijoz» deb kishilarni ajratadi. Issiq mijozli kishilar koloriyasi kuchli mahsulotlarni ya'ni yog'li ovqat, qo'y go'shti, tuxum, qant, yong'och, mag'iz, qora choy kabilarni iste'mol qiladilar, bular qonni oshiradi, kuchni, haroratni oshiradi; sut, mastava, ko'k choy, baliq, o'simlik va boshqalar sovuqlikni oshiradi va ular mijozga ta'sir etadi deydi. Shunga binoan issiqlikni ko'p iste'mol qiluvchilar issiq mijoz, sovuqlik mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar sovuq mijoz bo'ladi deb ko'rsatadi. Ibn Sino qadimgi grek ta'limotiga binoan mijozning fiziologik asosi haqidagi to'rt modda ya'ni olov, havo («yengil» element), suv, yer («og'ir» element) va uning xususiyatlarini tahlil qilib, olov issiq, yengil; havo issiq va nam, suv sovuq va nam, yer quruq va sovuqligiga asoslanib mijozni issiq, o'rtacha, sovuq bo'lishini aniqlab berdi.

Keyinchalik temperament to'g'risidagi bu taxmin rad qilindi. Lekin temperamentning 4 guruhga bo'linishi va ularning nomlari saqlab qolindi. Mutafakkir olim mijozni odam organizmining xususiyatini ifodalashini va u tashqi muhit faktorlarini jismoniy va ruhiy idrok qilinishidir degan fikrni ilgari surdi. XX asrning 30—40 yillariga kelib temperament va uning nerv fiziologik asoslari haqidagi ta'limot rus fiziologi I. P. Pavlov tomonidan ishlab chiqildi. Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablari I. P. Pavlovning yuksak nerv faoliyat tiplari haqidagi ta'limotida ochib

berildi. I. P. Pavlov yuksak nerv faoliyat turlari deganda hayvon bilan odam nerv sistemasining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi.

I. P. Pavlov fikricha, Gippokratning to'rtta temperament tipiga to'g'ri keladi: kuchli muvozanatli va ephil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi;

kuchli, muvozanatli inert (sustkash) tip og'ir vazmin tip. Flegmatik temperamentning asosini tashkil etadi;

kuchli, lekin muvozanatsiz, ya'ni qo'zg'alish tormozlanishdan ustun chiqadigan, qizg'in, jo'shqin, tip. Bu — xolerik temperamentning asosini tashkil etadi;

kuchsiz tip. Melanxolik temperamentning asosini tashkil etadi.

I. P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta'riflaydi: «Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir»). Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan individual xususiyatdir.

Xolerik temperament — hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xoleriklar qizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar

Sangvinik temperament — hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog'i mumkin.

Flegmatik temperament — hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin.

Melanxolik temperament — hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. P. Pavlov. Полное собрание сочинений, III том, 2 kitob, 268 bet.
2. E.G'.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent-2010
3. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan
4. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Murotmusaev Komiljon Buriboyevich, Yuldashev Sheryigit Ergashovich. "PSCHOLOGY OF MODERN

LEADERSHIP AS AN IMPORTANT PHENOMENON OF EFFECTIVE MANAGEMENT” **International Journal of Early Childhood Special Education**  
ISSN:1308-5581 2022 yil

5. Shovxiyev L.(2021). Ursachen der Entstehung von psychischen Krisen. **"International Simposium of Young Scholars"** Xalqaro Amerika konferensiyasi. (514-516 betlar)

6. Shovxiyev, L., & Sharafitdinov, A. (2022). Psixologiyada tush korish tilsimlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 485–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5204>

7. Shovxiyev, Luqmoniddin Balibekova, G., (2022). Muloqot insonlarga ta’sir otkazish vositasi sifatida. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 518–520. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5229>

8. Shovxiyev L. & Sharafitdinov, A.,(2022). Hissiy intellekt va uning shakllanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 437–440. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5161>

9. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, B, Usmonqulova.P.Sh Jamiyatda shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi (Hoучный Фокус jurnali. Rossiya hamda O‘zbekiston hamkorligidagi ilmiy jurnal) 159-bet. <https://nauchniyimpuls.ru/>

10. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, Balibekova Gulshoda Saydulla qizi “Idrok shakllanishining yoshga doir xususiyatlari” WORLD OF SCIENCE jurnali. 380-bet. <http://scientificacademy.org/>

11. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, Muhammadiyev Abdumo‘min Abduxoliq o‘g‘li Karl Gustav Yungning analitik psixologiyasida kollektiv ongsizlik tushunchasi. «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 17-19 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7263>

12. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, Gapparova Zokira Xudayberdi qizi “Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyani Rossiyada o‘rganilishi” “TADQIQOTLAR” Respublika ilmiy-metodik jurnali.

13. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, Ergashov Navruzbek Akmal o‘g‘li “A.ADLERNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIYA BO‘YICHA ISHLAR” “TADQIQOTLAR” Respublika ilmiy-metodik jurnali. 70-75 betlar. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/1562>.

14. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o‘g‘li, Xolmo‘minova Muxlisa Xudayor qizi B.F.Skinnerning hayoti va ijodi “TADQIQOTLAR” Respublika ilmiy-metodik jurnali. 63-69 betlar. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/1561>

15. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Toshbekov Husniddin Orifjon o'g'li, EDVARD TORNDAYKNING TA'LIM TAMOYILLARI, TA'LIM NAZARIYASINING ASOSIY QONUNLARI VA XUSUSIYATLARI «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 6-11 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7261>

16. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ernazarov Hamdam Beknazar o'g'li G.YU.AYZENKNING HAYOTI VA IJODI «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 165-169 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7259>

17. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ubaydullayeva Yasmina Ulug'bek qizi "Irodaviy harakatlarning yosh xususiyatiga bog'liqligi" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 12-16 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7262>

18. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Qo'chqorova Surayyo Baxtiyor qizi "KURT LEVIN HAYOTI VA IJODI" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 139-143 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7253>

19. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Soriyeva Gulnoza Shuhrat qizi "Muloqot va shaxslararo munosabatlar" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

20. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Soriyeva Gulnoza Shuhrat qizi "PSYCHOLOGY AND PERSONAL DEVELOPMENT" PEDAGOG jurali.

21. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Balibekova Gulshoda Saydulla qizi "Shaxsda xavotirlanishning psixologik sabablari" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal.

22. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Xolova Mohina Hayot qizi, "Ta'lim jarayonida o'quvchilar diqqat barqarorligini o'rganilishda innovatsion usullardan foydalanish" «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. 132-138 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7252>

23. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Ergashova Dilafruz Ergash qizi, "Ta'lim motivatsiyasi va uni shakllantirish jarayoni" "TADQIQOTLAR" Respublika ilmiy-metodik jurnali. 76-81 betlar. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/1563>

24. Рахматуллаева, П. М., & Маҳкамова, М. А. (2022). ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 1), 160-163.

25. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

26. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).

27. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.

28. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

29. Rahmatullayeva & M, Karakulova, U., Rashidova, G. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

30. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O 'QITUVCHI VA TALABALAR O 'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

31. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO 'DAKLIK DAVRI TO 'G 'RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

32. Rahmatullayeva, M. (2021). O 'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).

33. Rahmatullayeva, M., & Karimova, N. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINING DOLZARB MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

34. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

35. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO 'LLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

36. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). PSIXOLOGNI PSIXOMETRIK JIHATIDAN TAYYORLASH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).

36. Rashidova, G., Rahmatullayeva, M., Saidov, S., & Egamqulova, S. (2023). CHARACTER, ABILITY, AND ACTION: THE UNITY OF HUMAN ACTIVITY. *Наука и инновация*, 1(10), 152-155.

37. Rahmatullayeva, M., Khasanov, F., & Abduganieva, A. (2023). ATTENTION AND MEMORY AS A MENTAL PROCESS. *Наука и инновация*, 1(10), 60-62.